Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 17-sentabr 2026-yil

MUSTAQILLIK YILLARIDA YOSHLAR SIYOSATINING HUQUQIY-ME’YORIY NEGIZI EVOLYUTSIYASI

Malika Uraimjonova Qaxramon qizi
“Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti” Pedagogika-psixologiya va umumta’lim fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID iD: 0009-0005-0816-1276
malikauraimjonova0109@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida (1991–2025) yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy-me’yoriy negizining bosqichma-bosqich evolyutsiyasini tarixiy-huquqiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — yoshlar siyosatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvini davrlarga bo‘lib o‘rganish hamda ularning amaliyotga ta’sirini baholashdan iborat.

Kalit so‘zlar: huquqiy-me’yoriy baza, yoshlar siyosati, qonunchilik, farmon, qaror, evolyutsiya, davrlashtirish, Yangi O‘zbekiston.

Mamlakat taraqqiyotida yoshlarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Har qanday davlatning kelajagi, uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va siyosiy mustahkamligi yosh avlodning intellektual salohiyati, ma’naviy yetukligi hamda faolligi bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali tashkil etish har doim ustuvor vazifa bo‘lib kelgan.

Mazkur tezis mavzusining dolzarbligi bir nechta omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, O‘zbekiston aholisining yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil etishi ushbu demografik salohiyatni samarali ishga solish uchun puxta o‘ylangan va huquqiy jihatdan mustahkam asosga ega siyosatni talab qiladi. Ikkinchidan, mustaqillikning dastlabki yillaridan to bugungi kungacha yoshlar siyosati sohasidagi qonunchilik bazasining evolyutsion rivojlanishini tahlil qilish, uning tarixiy bosqichlarini, qabul qilingan hujjatlarning mazmun-

mohiyatidagi o‘zgarishlarni chuqur anglash imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi[1] doirasida yoshlar masalasiga berilayotgan yuksak e’tiborni, jumladan, 2016-yilda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun hamda keyingi yillarda Prezident farmonlari va qarorlari bilan mustahkamlangan yaxlit tizimni to‘g‘ri baholashga xizmat qiladi. Uchinchidan, yoshlar siyosatining huquqiy-me’yoriy negizini alohida-alohida hujjatlar majmui sifatida emas, balki yaxlit evolyutsion jarayon sifatida o‘rganish ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar uchun yangi metodologik yondashuvni taqdim etadi. Bu orqali qonunchilikning qanday omillar ta’sirida o‘zgarganini, qaysi davrlarda qanday muammolarga e’tibor qaratilganini va ularning yechimlari qanday huquqiy shaklga ega bo‘lganini aniqlash mumkin.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yoshlar siyosatini tartibga soluvchi huquqiy-me’yoriy negizning shakllanishi va bosqichma-bosqich takomillashuvini tarixiy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilish, mazkur jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari va tendensiyalarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy vazifalar belgilandi:

Birinchidan, mustaqillikning dastlabki yillaridan to Yangi O‘zbekiston davrigacha bo‘lgan har bir tarixiy bosqichda yoshlar siyosatiga oid qabul qilingan asosiy huquqiy-me’yoriy hujjatlarni (Konstitutsiya normalari, qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari, hukumat qarorlari) aniqlash, ularni tizimlashtirish va davrlashtirish.

Ikkinchidan, ushbu hujjatlarning mazmun-mohiyatidagi o‘zgarishlarni, yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va mexanizmlarining evolyutsiyasini qiyosiy tahlil qilish.

Uchinchidan, huquqiy-me’yoriy bazaning amaliyotga ta’sirini, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat hayotidagi ishtirokini ta’minlash borasidagi samaradorligini baholash.

To‘rtinchidan, yoshlar siyosatining huquqiy-me’yoriy asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda kelajakdagi

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur tezisning ilmiy yangiligi, avvalo, O‘zbekistonda yoshlar siyosatiga oid huquqiy-me’yoriy bazaning shakllanishini alohida, fragmentar tarzda olingan hujjatlar yig‘indisi sifatida emas, balki uzviy bog‘liqlikdagi yaxlit evolyutsion jarayon sifatida tadqiq etishga qaratilgan genetik yondashuv bilan belgilanadi. , O‘zbekistonning mustaqillik davri yoshlar siyosati qonunchiligi ilk marotaba uch bosqichli konseptual davrlashtirish asosida o‘rganilmoqda:

1) Dastlabki poydevorning qo‘yilishi (1991–2000);

2) Institutsional rivojlanish va tizimlashtirishga urinishlar (2001–2015);

3) Kompleks va manzilli yondashuvga o‘tish (2016-yildan hozirgacha). Ushbu davrlashtirish har bir bosqichning o‘ziga xos huquqiy mantig‘i, yutuq va ziddiyatlarini tarixiy kontekstda ochib berish imkonini yaratadi.

Tezisning metodologik negizini mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yoshlar siyosatining huquqiy-me’yoriy bazasi evolyutsiyasini chuqur va har tomonlama tahlil qilishga qaratilgan tarixiy-huquqiy hamda qiyosiy-tahliliy yondashuvlar tashkil etadi. . Tarixiylik metodi jihatidan olib qarasak, yoshlarga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va takomillashuvini xronologik ketma-ketlikda, har bir davrning ijtimoiy-siyosiy konteksti bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish imkonini berdi. Bu metod orqali qonunchilikdagi o‘zgarishlarning sabablari va oqibatlari tahlil qilindi.

Qiyosiy-tahliliy metod orqali mustaqillikning turli bosqichlarida qabul qilingan huquqiy hujjatlarning mazmuni, tuzilishi va amaliy ahamiyati qiyosiy jihatdan tahlil etildi. Xususan, dastlabki huquqiy asoslar bilan keyingi davrlarda qabul qilingan kompleks qonun hujjatlari o‘rtasidagi farqlar, ularning yoshlar hayotiga ta’siridagi o‘zgarishlar ochib berildi.

Ushbu tezisda da yoshlarga oid davlat siyosatini tartibga soluvchi qonunchilikning rivojlanishi uch asosiy tarixiy bosqichga ajratilib, birinchi davr (1991–2000 yillar): Milliy davlatchilik asoslarining shakllanishi va yoshlar siyosatining deklarativ-fundamental negizining yaratilish bo’lsa, ikkinchi davr (2001–2015 yillar): Yoshlar siyosatining institutsionalizatsiyasi va me’yoriy bazaning tarmoqlanishi va uchinchi davr (2016 yil – hozirgi kunga qadar): Yoshlar siyosatining tubdan isloh qilinishi va kompleks-strategik

huquqiy tizimning yaratilishi bilan ifodalanadi.

Xulosa o‘rnida ,tadqiqot natijalari O‘zbekistonda mustaqillik yillarida yoshlar siyosatining huquqiy-me’yoriy negizi shunchaki hujjatlar yig‘indisi sifatida emas, balki aniq tarixiy bosqichlarga ega bo‘lgan, izchil va mantiqiy evolyutsion jarayon sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

Birinchi davr (1991–2000) davlat mustaqilligining dastlabki yillaridagi qiyinchiliklar sharoitida yoshlar masalasiga oid huquqiy poydevorning qo‘yilishi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi davrda (2001–2015) yoshlar siyosati “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda institutsional jihatdan mustahkamlandi. Biroq, huquqiy tartibga solish asosan yagona tashkilot faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgani sababli, siyosatning qamrovi va ko‘lami ma’lum darajada cheklangan edi. Uchinchi davr (2016-yildan hozirgacha) Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar siyosatining huquqiy asoslarini tubdan isloh qilish bilan ajralib turadi. 2016-yilda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun va uning ortidan qabul qilingan o‘nlab strategik hujjatlar sohada parokandalikdan yaxlitlikka, deklarativ normalardan aniq mexanizmlarga o‘tishni ta’minladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 14-sentabr, O‘RQ-406-son.

3.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.